NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

ABDULLAYEVA MANZURA NASIBULLO QIZI

UMRZOQ XOLBOY O‘G‘LI HAYRATIY SHE’RIYATINING LINGVOPOETIK VA LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Namangan – 2025

UO‘K: 811.512.133'42+821.512.133'06.09-1

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on Philological Sciences

Abdullayeva Manzura Nasibullo qizi
Umrzoq Xolboy o‘g‘li Hayratiy she’riyatining lingvopoetik va lingvokulturologik tahlili 3

Abdullaeva Manzura Nasibullo kizi
Linguopoetic and linguacultural study of the poetry of the poet Umrzak Khairatiy 25

Абдуллаева Манзура Насибилло кизи
Лингвопоэтическое и лингвокультурологическое исследование поэзии поэта Умрзак Хайратий 47

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 51

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

ABDULLAYEVA MANZURA NASIBULLO QIZI

UMRZOQ XOLBOY O‘G‘LI HAYRATIY SHE’RIYATINING LINGVOPOETIK VA LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Namangan – 2025

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Fil.3694 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi(www.namdu.uz) hamda «ZiyoNET» Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Usmonova Hurinisa Sharopovna** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Akbarova Zuhro Akmaljonovna** filologiya fanlari doktori, professor.
	To‘xtasinova Odinaxon Yusupovna filologiya fanlari doktori, dotsent.
Yetakchi tashkilot:	**Andijon davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “_____” _____soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 160119, Namangan shahri, Bobur shoh ko‘chasi, 161-uy. Tel.: (+99869) 227-06-12; Tel.: (998-69) 228-85-01, Faks: 228-85-02. Web-sayt: www.namdu.uz, e-mail: info@namdu.uz faks: (+99869) 227-07-61; e-mail: info@namdu.uz)

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 160119, Namangan shahri, Bobur shoh ko‘chasi, 161-uy. Tel.: (99869) 227-29-81).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” _____kuni tarqatildi.
(2025-yil “___” _____ dagi_____ raqamli reestr bayonnomasi).

Z.Y.Sodikov,
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi, f.f.d., (DSc), professor

I.O‘.Darvishov,
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash kotibi, PhD, dotsent,

F.I.Karimova,
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.f.d., (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida badiiy matnni yanada mukammal tadqiq etish uchun zamonaviy yondashuvlar orasida lingvopoetika va lingvokulturologiya izchil taraqqiy etib kelmoqda. Lingvopoetika uchun ijodkorning o‘ziga xos uslubi, so‘z qo‘llash mahorati, til birliklari orqali ifoda etilayotgan voqelik, his-tuyg‘ularga mos holda foydalanishdagi originallik, emotsionallik va ekspressivlikni aks ettiruvchi lisoniy vositalarning, lingvokulturologiya uchun esa, badiiy asar yaratilgan makon va madaniyat, olamning muayyan tildagi lisoniy manzarasi va uning ijodkor tomonidan qayta aks ettirilishi, milliy-madaniy konseptlar masalsining amaliy jihatdan keng ko‘lamda o‘rganish muhim masala qilib qo‘yilmoqda. Ayniqsa, mumtoz badiiy asarlar matnining lingvopoetik va lingvokulturologik xususiyatlarini tadqiq etish filologlarning e’tiborini muttasil jalb qilib kelmoqda.

Dunyo tilshunosligida fonetik, leksik va grammatik birliklarning poetik matnda qo‘llanishi, ijodkor individual uslubi orqali noan’anaviy, noodatiy ifodalarning yaratilishini tadqiq etish zaruriy ilmiy masalalardan ekanligi qayd etilmoqda. Milliy obrazli tafakkur mahsuli sanaluvchi o‘xshatishlar, metaforalar va paremiologik birliklarning qo‘llanishida esa lingvopoetik hamda lingvokulturologik jihatlarning ilmiy-nazariy asoslari bosh masala sifatida e’tirof qilinmoqda. Badiiy matn ijodkorning dunyoni, voqelikni obrazli-estetik idrok qilishi mahsuli sifatida paydo bo‘lishi, uning badiiy butunlik sifatida o‘quvchi tomonidan tushunilishi, idrok etilishi ham murakkab estetik faoliyat ekanligining ilmiy-amaliy tomonlarini tadqiqot asosi sifatida belgilanishi muhim vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda.

O‘zbek tilsunosligida mustaqillik yillarida mumtoz adabiy manbalarning lisoniy, ma’rifiy, badiiy xususiyatlarini o‘rganish masalasiga e’tiborning kuchayganligi sababidan filologik tadqiqotlarning mavzu doirasi tobora kengaymoqda. Bu borada tilshunoslikning zamonaviy soha va yo‘nalishlarida olib borilayotgan ilmiy-nazariy va amaliy tadqiqotlarning o‘ziga xos o‘rni va ahamiyati mavjud ekanligi alohida ta’kidlanganidek, «Mamlakatimizda o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi o‘rni va ahamiyatini oshirish, uni zamon talablari asosida rivojlantirish masalasini biz milliy o‘zligimizni anglash, millat ruhini saqlab qolish, yorug‘ kelajagimizni ta’minlashning eng muhim omili, deb bilamiz»[1].. Xususan, mumtoz matnlarning badiiy hamda lingvistik xususiyatlariga doir keng ko‘lamli tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur tadqiqotning obyekti bo‘lgan Umrzoq Xolboy o‘g‘li Hayratiy ijodida har bir so‘z tilning badiiy-estetik vazifasiga monand qo‘llangani shoirning ona tili imkoniyatlarini chuqur o‘zlashtirgani va undan to‘laqonli foydalana olganini o‘rganilishi mavzusining dolzarbligini, muhim zaruriy ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilingan-ligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”, PQ-4479-son, 2019-yil

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbek tili bayrami munosabati bilan O‘zbekiston xalqiga bayram tabrigi. https://www.gazeta.uz/oz/2023/10/21/uzbek-language/ https://lex.uz/docs/4561730

21-oktyabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son, 2020-yil 20-oktyabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”|gi PF-6084-son Farmoni, 2020-yil 30-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqishga olib shiqish shora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6017-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son 2022-yil 6-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-165-son qarorlari hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Badiiy asar tilining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq tadqiqotlar jahon tilshunosligida uzoq tarixga ega. Dunyo tilshunosligida badiiy asar tili haqidagi ilk qarashlar qadimgi yunon faylasufi Aristotel nomi bilan bog‘liq[2]. Xususan, ritorika, stilistika, badiiy asar tili kabi fan sohalarining tarixiy taraqqiyoti lingvopoetikani shakllantirdi. Bu masalalar bo‘yicha g‘arb tilshunosligida ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lib, dastlab G.E.Lessing, keyinroq A.Xolodovich, M.Birvish, R.Yakobson, B.Larin, L.Shitser, B.Tomashevskiy, V.M.Jirmunskiy, V.Vinogradov, G.O.Vinokur, Y.S.Stepanova, A.V.Chicherin, M.M.Baxtin, O.S.Axmanova, V.P.Grigorev, V.A.Kuxarenko, M.I.Gorelikova, N.A.Kupina, V.Y.Zadornova, N.A.Nikolina, A.A.Lipgart[3] kabilar tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohalarining

[2] Arastu. Poetika (Nafis san‘atlar haqida). Axloqi kabir (Katta axloq kitobi). Ritorika (Xitoba). – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015 – B.51.

[3] Холодович А. К вопросу о лингвистическом методе в поэтике // К борбе за марксизм в литературной науке. – Л.: Прибой, 1930; Виноградов В.В. О языке художественной литературе. – М., 1956; Винокур Г.О. Филологические исследования: лингвистика и поэтика. – М.: Наука, 1970; Ларин Б.А. Эстетика слова и язык писателя. – Л.: Художественная литература, 1974; Степанова Ю.С. Основы общего языкознания. – М., 1975; Жирмунский В. М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. – Л.: Наука, 1977; Шмелов Д.Н. Русский язык в его функциональных разновидностях. – М.: Наука, 1977; Григорьев В.П. Поэтика слова. – М.: Наука, 1979; Новиков Л.А. Лингвистическое толкование художественного текста. – М.: Русский язык, 1979; Хованская З.И. Анализ литературного произведения в современной французкой филологии. – М.: Высшая школа, 1980; Галперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. – М., 1981; Задорнова В.Я. Восприятие и интерпретация художественного текста. – М.: Высшая школа, 1984; Григорьев В.П. Структура и функционирование поэтического текста. Очерки лингвистической поэтики. – М.: Наука, 1985; Якобсон Р. Работы по поэтике. – М.: Прогресс, 1987; Кухаренко В.А. Интерпретация текста. – М.: Просвещение, 1988; Гореликова М.И., Магомедова Д.М. Лингвистический анализ художественного текста. – М.: Русский язык, 1989; Шанский Н.М.Лингвистический анализ художественного текста. – Л.: Просвещение, 1990; Липгарт А.А. Лингвопоэтическое сопоставление: теория и метод. – М., 1994; М.В., Яковлева Е.В. Основы филологического чтения: Современный английский язык. – М.: Диалог – МГУ, 1997; Липгарт А.А. Основы лингвопоэтики. – М., 1999; Купина Н.А., Николина. Н.А. Филологический анализ художественного текста –

uyg‘unligi, o‘zaro bog‘liqligi haqidagi fikrni ilgari suradilar. Ayni paytda, ularning asarlarida badiiy matn tadqiqi jarayonida til hodisalari tahliliga alohida e‘tibor qaratish lozimligi ta‘kidlanadi. XX asrning o‘rtalaridan o‘zbek filologiyasida ham lingvopoetik tadqiqotlar doirasida yozuvchi tili va uslubi, badiiy asar tilini o‘rganishga alohida e‘tibor qaratila boshlandi. A.G‘ulomov, X.Doniyorov, S.Mirzayev, L.Abdullayeva, E.Qilichev, S.Karimov, B.Umurqulov, X.Abdurahmonov, N.Mahmudov, I.Mirzayev, H.Ahmedov, G.Rixsiyeva, M.Yo‘ldoshev, S.Mo‘minov, M.Qosimova, G.Muhammadjonova, D.Jamoliddinova, M.Abdupattoyev, H.Usmonova, D.Shadiyeva, O.Tursunova, G.Rihsiyeva, G.Keldiyorova, Sh.Toshxo‘jayeva, G.Jumanazarova, D.Andaniyozova, D.Nazarova, T.Butunbayeva, A.Hasanov, A.Hamidov, A.Saminov, N.Ahmadjonov, N.Ortiqova[4] singari tilshunoslarning ishlarida mazkur masala tadqiq etilgan.

М.: УРСС, 2003; Маринова Е.В. Иноязычная лексика современного русского языка: учеб. пособие. – М.: Наука, 1975.

[4] Маҳмудов Н. Ойбек насрида ўхшатишларнинг лингвопоэтикаси // Ўзбек тили ва адабиѐти. 1985, № 6 . – Б.48-50; Шу муаллиф. Абдулла Қаҳҳор ҳикояларининг лингвопоэтикасига доир // Ўзбек тили ва адабиѐти. 1987. №4 . – Б. 34-38; Мирзаев И.К. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста (на материале современной узбекской поэзии): Дисс… док.филол.наук. – Ташкент, 1992; Каримов С.А. Ўзбек тилининг бадиий услуби: Филол. фан. д-ри... дисс. – Тошкент, 1993; Раҳимов А. Ўзбек романи поэтикаси: Филол. фан. д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 1993; Имомова Г.М. Типик миллий характер яратишда бадиий нутқнинг ўрни: Филол. фан. номз… дисс. автореф. – Тошкент, 1993; Тўраев Д. Ҳозирги ўзбек романларида бадиий тафаккур ва маҳорат муаммоси (60-80-йиллар): Филол. фан. д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 1994; Нурматов А. Бадиий асарда полифонизм: Филол. фанлари номз… дисс. автореф. – Тошкент, 1996; Солижонов Й. XX асрнниг 80-90-йиллари ўзбек насрида бадиий нутқ поэтикаси: Филол. фан. д-ри... дисс. – Тошкент, 2002; Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадиий тил маҳорати: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2000; Нормуродов Р.У. Шукур Холмирзаев асарларининг тил хусусиятлари: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2000; Аҳмедов Ҳ. Ўзбек адабиётида насрий шеър: Филол. фанлари номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1995; Рихсиева Г. Шеъриятдаги гапларнинг актуал бўлинишида анафоралар ўрни: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1999; Келдиёрова Г. Ўзбек бадиий нутқида антитеза (Э. Воҳидов шеърияти мисолида): Филол. фанлари номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2000; Муҳаммаджонова Г. 80-йиллар охири ва 90-йиллар бошлари ўзбек шеъриятининг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2004; Шодиева Д.Ш. Муҳаммад Юсуф шеърияти лингвопоэтикаси: Филол.фан. номз...дис. автореф. – Тошкент, 2007; Тўланова Н. Тўқсонинчи йиллар ўзбек шеърияти тилидаги бадиий санъатларнинг лисоний-услубий таҳлили: Филол. фанлари номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2008; Жамолиддинова Д. Бадиий нутқда парантез бирликларнинг семантик-грамматик ва лингвопоэтик хусусиятлари. Филол.фанлари номз… дисс. – Тошкент, 2009; Нормаматов С. Абдулла Авлоний шеърияти лексикасининг маъновий-услубий хусусиятлари: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2011; Жуманазарова Г. Фозил Йўлдош ўғли достонлари тилининг лингвопоэтикаси (лексик-семантик, лингвостилистик ва лингвостатистик таҳлил): филол. фан. д-ри (DSc) дисс. автореф. – Тошкент, 2017; Турсунова О.А. Ўзбек бадиий нутқининг фонопоэтик тадқиқи (шеърий асарлар мисолида): Филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD) автореф. – Фарғона, 2018; Қурбонова М.О. Мустақиллик даври достонлари лингвопоэтикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD) автореф. – Фарғона, 2019; Абдупаттоев М.Т. Ўзбек тилининг поэтик синтаксиси: Филол. фан. док. (DSc) автореф. – Фарғона, 2021; Назарова Д.И. Жамол Камол шеърияти поэтикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD) автореф. – Бухоро, 2021; Бутунбаева Т.А. Замонавий назмий дискурсда индивидуалликни таъминловчи лисоний воситалар (Аъзам Ўктам ва Минҳожиддин Мирзо шеърияти мисолида) филол. фан. бўйича фалсафа. док. дисс... (PhD) – Самарқанд, 2021; Ҳамидов А. Мурод Муҳаммад Дўст асарлари лингвопоэтикаси: филол. фан. номз… дисс (PhD) – Қарши, 2020; Умурқулов Б. Ўзбек бадиий насрининг лингво-услубий шаклланиш асослари: фил. фан. док…дисс. (DSc) –Тошкент, 2020; Usmonova H.Sh. Gap bo‘laklarining pozitsion strukturasi. – Namangan, 2022; shu muallif: Mazmuniy sintaksis (gap bo‘laklarining pozitsion strukturasini o‘rganish masalalari). – Namangan, 2023; Саминов А.И. Оксюморон-бадиий нутқда лингвопоэтик восита сифатида: Филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD) автореф. – Фарғона, 2022; Axmadjonov N. Badiiy uslubda qo‘llangan presedent nomlarning lingvopoetik tadqiqi: (PhD). – Farg‘ona, 2022; Muminov S., Gopirova X. Rauf Parfi she’riyatining lingvopoetik xususiyatlari. – Farg‘ona, 2023; Ortiqova N. Anvar Obidjon she’riyatining fonoleksopoetik xususiyatlari: filol.fan. bo‘yicha falsafa dok… diss (PhD). – Farg‘ona, 2024.

Ayrim manbalardagi ma’lumotlarni hisobga olmaganda Umrzoq Hayratiyning adabiy merosi hali hozirgacha xalqqa to‘laligicha yetkazilmagan. To‘plamlarda,[5] gazeta-jurnallarda[6] ba’zi namunalar e’lon qilingan, xolos. Ijodkor to‘g‘risida dastlab adabiyotshunos Dadamirza Orifboyevning maqolalari[7] filologiya fanlari nomzodi Alixon Xalilbekovning tadqiqotlari[8] uchraydi. Bu boradagi salmoqli ma’lumotlarni O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi Sodiq Sayhun to‘pladi va nashr ettirdi[9]. Yuqorida nomlari zikr qilingan tadqiqot yoki ma’lumotlarning barchasi adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan olib borilgan izlanishlar hisoblanadi. Biz mumtoz adabiyotimizning XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida yashab, qalam tebratgan so‘z san’atkorlaridan yana bir munosib vakili shoir Hayratiyning badiiy-uslubiy mahoratini tilshunoslik yo‘nalishi nuqtai nazaridan tadqiq etdik.

O‘zbek tilshunosligida badiiy asarlarning lingvopoetik va lingvokulturologik jihatlari hali yetarli o‘rganilmagan. Ushbu tadqiqot o‘zbek milliy uyg‘onish davri namoyandasi Umrzoq Hayratiyning ijodi bo‘yicha amalga oshirilgan ilk ilmiy izlanish sanaladi. Shoirning g‘azal, murabba, muxammas, musaddas, mustazod, ruboiy, fard va masnaviylarining leksik qatlamidagi badiiy so‘z san’atlarining ifodaviylik jihatlari, lingvokulturologik til birliklaridan foydalanish mahorati, ularning leksik-stilistik va konseptual xususiyatlari ma’lum darajada tadqiq etilgan. Xususan, lingvopoetik va lingvokulturologik xususiyatlari monografik tarzda o‘rganilgan.

Tadqiqot mavzusining dissertasiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertasiya Namangan davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «O‘zbek tilining sistem-struktur va antroposentrik tadqiqi» mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Shoir Hayratiy ijodiy merosining lingvopoetik hamda uning she’rlarida qo‘llangan lisoniy birliklarning lingvokulturologik xususiyatlarini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari sifatida quyidagilar belgilab olindi:

Hayratiy asarlarining fonopoetik xususiyatlarini aniqlash, fonetik birliklarning poetik funksiyalarini tahlillash;

shoir she’rlarida qo‘llangan sinonim, antonim, so‘z takrori, o‘xshatish va boshqa lisoniy birliklarning genetik tarkibi va o‘zlashma so‘zlarning asliyat bilan semik munosibligini aniqlash;

g‘azal, masnaviy, muxammas, musaddas, mustazod va fardlarida ijodkor qo‘llagan madaniy leksemalarning milliy xususiyatlarini o‘rganish;

---

[5] Асрлар нидоси. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1982. – Б. 408-432.

[6] Ҳайратий ғазаллари // Меҳнат ва турмуш, 1974, 4-сон; Ҳайратий ғазалларидан намуналар // Гулистон, 1975, 3-сон; Умрзоқ Ҳайратий ижодидан // Наманган ҳақиқати, 1974, 52-сон; Бебаҳо мерос // Машъал, 1974, 100-сон.

[7] Орифбоев Д. Шоир Ҳайратий // Машъал, 1972, 65-сон.

[8] Xalilbekov A. Namangan adabiy gulshani. – Namangan. 2007; shu muallif: A. Hayrat // Namangan haqiqati, 2004, 80-son.

[9] Sayhun S. Biz bilgan va bilmagan shoir Hayratiy. – Namangan: Iste’dod ziyo press, 2022. – B.156.

Hayratiyning XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi o‘zbek adabiy tili rivojiga o‘ziga xos uslubi bilan qo‘shgan hissasini yorqin misollar asosida ko‘rsatib berish.

Tadqiqot obyekti sifatida Hayratiyning qo‘lyozma “Tuhfayi Hayratiy” devoni, tadqiqot jarayonida yangi nashr etilgan “Armug‘on” to‘plami, gazeta va jurnallarda yoritilgan she’rlari hamda yangi topilgan qo‘lyozma g‘azal, muxammas va musaddaslari tanlandi.

Tadqiqotning predmetini Hayratiy she’rlarida qo‘llanilgan til birliklarining lisoniy-badiiy, struktur-semantik va lingvokulturologik tahlili tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Mavzuni yoritishda tavsiflash, tasniflash, qiyoslash, komponent va kontekstual, semantik-stilistik va statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Hayratiy asarlarining lingvopoetik xususiyatlari nutq ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiluvchi fonopoetik vositalar (alliteratsiya, assonans, geminatsiya, ohangdoshlik), leksik-semantik birliklar va ma’no ko‘chish usullariga xos original ifodalar, poetik sintaksisga oid usul va shakllar misolida ochib berilgan.

shoir badiiyati matnda qo‘llanib, uning hissiy-ta’siriy funksiyasini kuchaytiruvchi antiteza, gradatsiya, parallelizm kabi badiiy tasvir vositalari, she’riy sanatlar, ijodkorning individual nutqiy jarayonlarining voqelanishi dalillangan;

Hayratiy shoir asarlarida milliy-madaniy, etnik-mental tushunchalarning ifodalanishi lingvokulturologiyaning eng muhim obyektlaridan sanaluvchi va milliy obrazli tafakkur mahsuli hisoblanuvchi o‘xshatishlar, maqol va matallar misolida asoslangan.

shoir she’rlarining lingvokulturologik xususiyatlaridagi mumtoz matnlarning konseptual o‘ziga xoslik, olamni lisoniy aks ettirishda shoir yashagan ijtimoiy muhit va davr ruhiyati, uning tarixiy-badiiy ahamiyati badiiy tahlil asoslari va qonuniyatlari orqali isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“Tuhfayi Hayratiy” devoni va bayozlaridan o‘rin olgan she’rlarning fonopoetik va leksopoetik jihatdan tadqiq qilish jarayonida olingan xulosalar o‘zbek tili tarixi, semasiologiya sohalarini yangi ilmiy-nazariy qarashlar bilan boyitishi, uslubshunoslik hamda sohaviy leksik sistemaga doir tadqiqotlar yaratishda xizmat qilishi asoslangan;

ijodkor asarlari lingvopoetik va lingvokulturologik tahlili bo‘yicha aniqlangan natijalar o‘rta maktab, akademik litseylar adabiyot darsliklarida milliy uyg‘onish davri namoyandalari bilan bog‘liq mavzular matnining badiiy-lisoniy xususiyatlarini yoritishda yana bir muhim manba bo‘lishi isbotlangan;

oliy o‘quv yurtlarida «Lingvopoetika», «Lingvokulturologiya», «Matn tilshunosligi», «Madaniyatshunoslik», «Badiiy tahlil asoslari», «Aksiologiya», «Etnomadaniyat», «Lingvofolkloristika», «Pragmalingvistika» kabi fanlardan yaratiladigan darslik va o‘quv qo‘llanmalarining mukammallashuviga muhim qo‘shimcha sifatida foydalanilishi tavsiya qilingan;

dissertatsiyada badiiy matnda xalq og‘zaki nutqidagi faol so‘z, ibora, matal va maqollarning bajargan funksiyalarini aniqlash bilan o‘zbek adabiy tili jamiyatdagi o‘zgarishlarga bog‘liq holda taraqqiy etganligi shoirning uslubiy mahorati vositasida asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tilshunoslikda qo‘llanilayotgan tadqiq usullari asosida tadqiqot maqsadiga mos ilmiy asoslangan nazariy xulosalar chiqarilganligi, nazariy ma’lumotlar rasmiy manbalardan, misollar shoirning qo‘lyozma devoni asosida nashrdan chiqarilgan yangi “Armug‘on” saylanmasidan olinganligi, fikrlar tavsiflash, tasniflash, tahliliy va qiyosiy metodlar vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o‘zbek tilshunosligida lingvopoetika va lingvokulturologiyaga oid tadqiqotlar yaratishda, ularning badiiy, leksik-semantik va lingvokulturologik tahlilini amalga oshirishda ilmiy-nazariy manba bo‘lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, “Lingvopoetika” hamda «Lingvokulturologiya» faniga oid darslik va qo‘llanmalar yaratishda, oliy o‘quv yurtlarining filologiya fakultetlari talabalariga til va madaniyat bilan bog‘liq maxsus kurs hamda seminarlar tashkil etishda manba sifatida foydalanish mumkin. Shuningdek, mumtoz o‘zbek adabiyoti doirasida yaratilgan izohli va sohaviy lug‘atlarni to‘ldirish va mukammallashtirishda qo‘l keladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Umrzoq Hayratiyning devon, bayoz, gazeta-jurnallarda yoritilgan, adabiyot muxlislarining shaxsiy arxivida saqlanayotgan nazmiy asarlarining lingvopoetik va lingvokulturologik xususiyatlarini tadqiq etish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Hayratiy asarlarining lingvopoetik xususiyatlari nutq ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiluvchi fonopoetik vositalar (alliteratsiya, assonans, geminatsiya, ohangdoshlik), leksik-semantik birliklar va ma’no ko‘chish usullariga xos original ifodalar, poetik sintaksisga oid usul va shakllar misolida ochib berilgan o‘rinlardan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining She’riyat kengashi hisobot yig‘ilishlarida, yosh ijodkorlarning “Onajonim she’riyat” to‘garagi faoliyatidagi mahorat darslarida, badiiy-ijodiy seminarlarda foydalanilgan. (O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2024-yil 16-dekabrdagi 01-03/986-sonli ma’lumotnomasi). Natijada etuk shoirlar va yosh ijodkorlar badiiy faoliatini kuchaytirish ishlari samaradorligi ortgan.

shoir badiiyati matnda qo‘llanib, uning hissiy-ta’siriy funksiyasini kuchaytiruvchi antiteza, gradatsiya, parallelizm kabi badiiy tasvir vositalari, she’riy sanatlar, ijodkorning individual nutqiy jarayonlarining voqelanishi dalillangan xulosa va natijalaridan O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida 2021-2023-yillarda “Musiqa va san’at o‘quv muassasalari uchun “Bolalar raqslari” fanidan interaktiv o‘quv-metodik qo‘llanmalar yaratish” mavzusidagi F3-2019081773-raqamli fundamental loyihani bajarishda, xususan, “O‘zbek bolalar raqslari, raqs liboslari va taqinchoqlari nomlarining o‘zbekcha-ruscha-inglizcha-

fransuzcha qisqacha izohli lug‘ati”ni yaratishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat Vazirligi O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiya-sining 2024-yil 6-iyundagi 1-04-104-sonli ma’lumotnomasi). Natijada izohli lug‘atining badiiylik, ilmiylik va tushunarlilik darajasi ortgan.

shoir asarlarida milliy-madaniy, etnik-mental tushunchalarning ifodalanishi lingvokulturologiyaning eng muhim obyektlaridan sanaluvchi va milliy obrazli tafakkur mahsuli hisoblanuvchi o‘xshatishlar, maqol va matallar misolida asoslangan, Hayratiy she’rlarining lingvokulturologik xususiyatlaridagi mumtoz matnlarning konseptual o‘ziga xoslik, olamni lisoniy aks ettirishda shoir yashagan ijtimoiy muhit va davr ruhiyati, uning tarixiy-badiiy ahamiyati badiiy tahlil asoslari va qonuniyatlari orqali isbotlangan o‘rinlardan 2023-2024 yillarda O‘ZMTRK “O‘zbekiston teleradiokanali”, “Bedorlik”, “Ijod zavqi”, “Ta’lim va taraqqiyot”, “Millat va ma’naviyat” eshittirishlarining ssenariysini yozishda foydalanildi va muallif bilan suhbatlar uyushtirilgan (O‘zbekiston teleradiokanalining 2024-yil 28-iyundagi 26/36-900-son ma’lumotnomasi). Natijada ko‘rsatuv va eshittirishlar ilmiy jihati, badiiy saviyasi ortib, tomosabopligi kuchaygan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertasiya natijalari 8 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, respublika miqyosida 3 ta, 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma’ruza ko‘rinishida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertasiya mavzusi yuzasidan 6 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertasiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 2 ta maqola, 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya kirish, 3 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, asosiy hajmi 128 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning o‘rganilganlik darajasi, maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishiga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Badiiy matn va uning lingvistik xususiyatlari”** deb nomlangan. Bobning birinchi bo‘limi “Tilshunoslikda badiiy manbalarning o‘rganilishi” bo‘lib, unda XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlari mumtoz badiiy manbalarining tilshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganilishi haqida ma’lumotlar berilgan. So‘ngra Hayratiy she’riyatining badiiy, lingvistik va matniy jihatlariga istiqlol davrigacha garchi kam bo‘lsa-da, e’tibor qaratilganiga to‘xtalib o‘tilgan.

Ta’kidlanganidek, badiiy asar tilini o‘rganish lingvistik tadqiqotlarga qo‘shimcha vazifalar yuklaydi. Shu tufayli tilning eng muhim birlamchi vazifasi – axborot berish, uning ikkilamchi vazifasi – ekspressivlik bilan teng kelib gohida o‘zib ham ketadi. Aynan shu jihatdan yondoshilsa, badiiy asar tili kishilar o‘rtasida faqat aloqa-aralashuv quroligina emas, balki so‘z san’ati vositasi sifatida ham muhim material bo‘lib xizmat qiladi. Badiiy yozma nutq – matn tilshunoslik uchun ham, adabiyotshunoslik uchun ham birdek tadqiqot obyektidir. Chunki har qanday badiiy nutqning asosi tildan iboratdir. Rus filologi V.M. Jirmunskiy aytganidek: “Poeziyani o‘rganish boshqa har qanday san’atni o‘rganishda bo‘lgani kabi uning materialini va bu materialdan badiiy asar yaratish usullarini aniqlashni taqozo etadi[10]. XX asr tilshunosligida yetakchi bo‘lgan paradigmalar – qiyosiy-tarixiy, sistem-struktur hamda antroposentrik nazariyalarning umumiy tavsifi, omillari va ehtiyojlari, tilga antroposentrik yondashuv, uning inson va madaniyat bilan uzviy bog‘liqligi, lingvokulturologiya sohasi hamda unga aloqador bo‘lgan boshqa yo‘nalishlarning umumiy tavsifi beriladi.

Bobning ikkinchi bo‘limi *“Lingvopoetika va lingvokulturologiyaning nazariy masalalari”* deb ataladi. Tilning butun go‘zalligini namoyon etadigan, kishilarning ma’naviy olamini yuksaltiradigan yetakchi va ustuvor omil – badiiy asarlardir. Xususan, mumtoz adabiyotimizning badiiy til bisoti juda boy. Matn nutq hodisasi. “Til va nutq bir-biri bilan chambarchas bog‘liq, ammo ayni paytda bir-biridan farqlanishi kerak, - deydi Nizomiddin Mahmudov. – Til nutq uchun qurol, bu quroldan foydalanib nutq tuziladi, nopisandlik, e’tiborsizlik qilinsa, nutq o‘quvchiga maqbul tushmaydi va tilning ofati bo‘ladi”[11].

Lingvopoetik va lingvokulturologik tahlilning o‘ziga xos tamoyillari mavjud. Badiiy asar tili tadqiqiga bag‘ishlangan ishlarda tilning ayni “ekspressiv vazifasi” termini bilan bir qatorda “tilning poetik vazifasi”, “tilning badiiy vazifasi”, “tilning stilistik vazifasi”, “tilning ritorik vazifasi”, “tilning estetik vazifasi” kabi terminlar ham qo‘llanadi. Tadqiqotda tilning ana shu vazifalari shoir Umrzoq Hayratiy she’riyatida qanday ifoda etilgani tahlilga tortilgan. Turk filologi Ja’far G‘ariberning quyidagi fikrlariga amal qilingan: “…Muammo fikrning estetik jihat bilan qay tarzda bir butunlik hosil qilishi, tilga qanday ko‘chishi masalasidir. San’at asari ilmiy asardan, til-adabiyot tadqiqotchisining yondashuvi boshqa ilmiy yondashuvlardan ana shu nuqtada farq qiladi. Til-adabiyot tadqiqotchisi badiiy asardagi fikrni ham estetik uzvning bir qismi sifatida baholashga majburdir[12].

Badiiy matn ijodkorning dunyo, voqelikni obrazli-estetik idrok qilishi mahsuli sifatida paydo bo‘ladi. Badiiy matnning yaratilishi ham, uning o‘zi ham, badiiy butunlik sifatida o‘quvchi (tinglovchi) tomonidan tushunilishi, idrok etilishi ham murakkab estetik faoliyatdir.

Badiiy matnning lingvopoetik tahlil etishning aniq bir modeli yaratilgan emas. Tilshunoslik va til ta’limi amaliyotida fonetik tahlil, morfologik tahlil yoki

[10] Жирмунский В.М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. – Ленинград: Наука, 1977. – С.18.
[11] Mahmudov N. O‘qituvchi nutq madaniyati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy kutubxonasi, 2007. – B.19.
[12] Gariper C. Nazim Hikmet’in Ortulu Ideolojik Dili. Kultur Tarihimizde Gizli Diller ve Sifreler. – Istanbul, 2008. –S.159.

sintaktik tahlil kabi tekshirishning aniq tamoyil va usullari turg‘unlashgan. Ammo lingvopoetikada hamda lingvokulturologiyada hali bu darajaga kelingan emas.

Lingvokulturologik tahlil tamoyillarida o‘xshatishlar alohida o‘rin tutadi. Dastavval, o‘xshatishlarning turlari, etalonlari va o‘ziga xosliklari o‘rganiladi. So‘ngra tildagi universal hodisa, obrazli motivlashgan so‘z – metaforalar aniqlanadi. Bu borada o‘zbek millatining o‘ziga xos til madaniyati tahlilga tortiladi.

Shoir Umrzoq Hayratiy ijodiy merosidagi madaniy so‘zlarni ana shu nuqtai nazardan tahlilga tortish muhimdir. Bu yo‘nalishda metaforalar ham o‘xshatishga yaqin hodisa ekanini ta’kidlash lozim. Metafora tilning eng murakkab hodisasi bo‘lib, odatiy nomni jinsdan turga yoki turdan jinsga yoki turdan-turga yoki o‘xshashlik asosida ko‘chirilishidir. Metafora o‘zida asosiy madaniy qadriyatlarni aks ettiradi. Sababi, metafora madaniy-milliy dunyoqarashga asoslanadi.

Yuqoridagilardan xulosa shuki, har qanday badiiy ijod mahsuli o‘z nomi bilan badiiy so‘zlar vositasida yuzaga keladi. Badiiy so‘zlar asl va majoziy, ramziy ma’no-mohiyatga ega. Tadqiqotda shoir she’riyatidagi ana shu jihatlarni idrok etishga harakat qilinib, uning til boyligidan qanday mahorat bilan foydalangani va so‘z qo‘llashdagi uslubiy yutuqlarini ko‘rsatish ko‘zda tutilgan. Bundan avval esa bizgacha qanday izlanishlar olib borilganiga oydinlik kiritiladi. Shoir Hayratiy hayoti va ijodiga doir bir qancha maqolalar yoritilgan, devoni va bayozlardan she’rlari topilgan, ayrim namunalar e’lon qilingan.

Avvalo, Umrzoq Hayratiy o‘smirlik chog‘laridan boshlab, to umrining so‘ngigacha tinimsiz she’r yozish bilan shug‘ullangan. Namangan ijodiy muhitining zabardast qalamkashi sifatida milliy uyg‘onish davri adabiyotiga munosib hissa qo‘sha olgan. Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyining katta ilmiy xodimlari – Rahmat Majidiy, Muhammadjon Hakimov va Fathulla G‘anixo‘jayevlar bundan qariyb oltmish yillar muqaddam Namanganga uyushtirgan ilmiy-ijodiy safarlari davomida Hayratiyning bir necha noma’lum she’rlarini topishga muyassar bo‘lgan. 1969-yilda Qo‘qondagi G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot muzeyining ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi Ahmadjon Madaminov Hayratiyning “Bayoz”ini qo‘lga kiritgan[13]. 1910-yilda ko‘chirilgan bayozning yana bir qo‘lyozma nusxasining 1-218 varaqlarida Hayrat she’rlari Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Mashrab, Muqimiy, Furqat, Nodim va Xilvatiylarning asarlari qatorida berilgan. 1982-yilda nashr etilgan “Asrlar nidosi” majmuasida bir dasta g‘azal, muxammas va ruboiylari berilgan[14]. Shuningdek, “Guliston” hamda “Mehnat va turmush” jurnallarining o‘tgan asrning 70-yillaridagi sonlarida ham shoir nazmidan bir sahifali namunalar mavjud. Viloyatimizdagi “Namangan haqiqati” va “Mash’al” gazetalarida esa bir necha bor Hayratiy haqidagi muxtasar maqolalarga ilova tarzida g‘azal, masnaviy, muxammas, ruboiy va fardlari bosilgan. Yana mumtoz adabiyot ixlosmandi Sodiq Sayhunning shaxsiy arxivida shoirning turli yillarda qo‘lyozmalardan ko‘chirib,

[13] Орифбоев Д. Шоир Ҳайрат Тўракўрғоний. // “Машъал” газетаси, 1972. № 108.
[14] Халилбеков А. Наманган адабий гулшани. – Наманган, 2007. – Б.142-143.

mashinkalangan asarlari saqlanadi. Ilmiy tadqiqot doirasida ularning har birini o‘rganishga, tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlilga tortilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Hayratiy ijodida qo‘llangan fonopoetik va leksopoetik birliklar tadqiqi”** deb nomlanadi.

Ikkinchi bobning birinchi bo‘limi *“Hayratiy ijodida qo‘llangan fonetik birliklarning poetik funksiyalari”*ga bag‘ishlangan. O‘zbek tilshunosligida ham fonopoetika bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar o‘tkazilgan. Jumladan, O.Tursunova[15], A.Haydarov[16], M.Gaziyeva[17]larning ilmiy ishlari ayniqsa ahamiyatli. Mazkur tadqiqotimizda shoir she’rlari matnida qo‘llanilgan fonopoetik vositalar orqali Hayratiy ijodining o‘ziga xos badiiy-lisoniy qirralarini aniqlashga harakat qilingan. Avvalo, tovushning bir satrda yoki butun matnda qayta-qayta takrorlanish hodisasi o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmaydi. Tilshunoslikda bunday usul alliteratsiya deb ataladi. Aslida fonetik vositalarning har qanday turi she’riy nutqqa aloqadordir. Bir xil harf-tovushlarning so‘z boshida kelishi, takrorlarda qatorlashuvi yoqimli ohang va jarang beradi. Xoh undosh bo‘lsin, xoh unli bo‘lsin bundan mustasno emas. Shoir Hayratiy she’rlarida alliteratsiya uslubi besh turda qo‘llanganini (misollar “Armug‘on” to‘plamidan olinmoqda)[18] ko‘ramiz:

Birinchisi – yonma-yon *(Basharti beg‘araz bo‘lsa birodar)*, ikkinchisi – so‘zlar oralatib (*Zarrai g‘amga zaifu zor meningdek yo‘q kishi)*, uchinchisi – faqat satr o‘rtasida (*Dilrabo, mulki malohat shohisan)*, to‘rtinchisi – satr so‘nggida (*Husn avjining munavvar mohisan)*, beshinchisi – satr boshida va oxirida (*Toq o‘ldi oh naylayin hajringda tobu toqat)* takrorlanib alleteratsiya hosil qilingan.

Misralarda tovushni takrorlash, avvalo, g‘azal, masnaviy, muxammaslarga ohangdorlik va musiqiylik bag‘ishlaydi. Hayratiy baytlarida tovush uyg‘unligini yaratishning asosan konsonant (undoshlar takrori) usulidan mohirona foydalangan. Bu “Parallelizmlar va qaytariqlar bilan aloqador bo‘lib, ushbu evfonik figuralarning asar estetik ta’sirchanligini oshirishda roli juda kattadir”[19].

Fonopoetik vositalardan biri – evfoniya bo‘lib, bu holat asosan fonetik birliklar yordamida yuzaga keladi. Nutqning yoqimli ohangi uning fonetik shakllanishiga har jihatdan bog‘liq.

Bu zamona oshnosi bul ajab har rang erur,
Yaxshiga yaxshi, yomonlarga yomon bo‘lmoq kerak. (40-bet)

Mazkur misolda *“b”* tovushining 3 marta, *“a”* tovushining 12 marta, *“o”* tovushining 8 marta takrorlanishi evfoniyani yuzaga keltirgan uning vositasida misra va baytda fonopoetik mukammallik yaratilgan.

Shuningdek, tilda geminatsiya samarador fonetik hodisa hisoblanadi. Bu hodisaga nisbatan A.Abdullayev “undoshlarni qavatlash” atamasini qo‘llaydi[20]. A.

---

[15] Турсунова О. Ўзбек тили фонетик бирликларининг поэтик имкониятлари: Фил.фан.б-ча фалс.д-ри (PhD) ...дисс. автореф. – Фарғона, 2019.

[16] Ҳайдаров А. Бадиий тасвирнинг фоностилистик воситалари: Филол.фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008.

[17] Газиева М. Мулоқот жараёнида просодик воситаларнинг лингвопрагматик хусусиятлари: Фил.фан.б-ча фалс.д-ри (PhD) ...дисс. автореф. – Тошкент, 2018.

[18] Umrzoq Hayratiy. Armug‘on. – Namangan: Iste’dod ziyo press, 2024.

[19] Степанова А.С. Аллитерация в карельских плачах // фольклор, образ и поэтическое слово в контексте. – Москва: Наука, 1984. – С.127.


[20] Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. – Тошкент: Фан, 1983. – Б.18.

Xojiyev “ketma-ket kelgan aynan bir tipdagi undoshlar”[21], deya sharhlaydi. O. Tursunova esa “poetik nutqda ma’lum poetik vazifani bajarish, ma’noni kuchaytirish, tinglovchiga ta’sir o‘tkazish uchun muayyan maqsadda qo‘llanadi[22] deb ta’kidlaydi. Bizningcha, qavatlanish atamasi to‘g‘ri emasdek tuyuldi. Chunki, qavat ustma-ust bo‘ladi. Harf – tovush yonma-yon turadi. Ilmiy manbalarda “ketma-ket” deyilishi esa mavjud holatni ifodalay olmaydi. Bu hodisani undoshlarning “yondosh”, “egiz”, “juftlangan” qo‘llanishi deyilsa, ma’qulroqmikin degan fikrdamiz. Hayratiy ham g‘azallarida ana shunday undoshlarni egizlab, geminatsiya hodisasidan uslubiy vosita sifatida juda samarali foydalangan.

Mubtaloyi xoli-xattu mushki totoring manam,
Besaru anjom bir ovvorai sayyoring manam[23].

Ushbu baytdagi xoli-xattu so‘zida “t” tovushining, keyingi ovvora so‘zida “v” tovushining egizlanishi ham vazn talabiga, ham so‘zlovchining individual uslubiga ko‘ra qo‘llanilgan. Sinxron jihatdan bir undoshning juftlantirib yuborilishi, ya’ni geminatsiya qisqa unlini urg‘ulantirib, cho‘ziq talaffuzni yuzaga keltirgan. Xuddi shunday hol *ummid, xummor, durri, shakkar* kabi so‘zlarida ham bir necha bor uchraydi. Bular shoirning ruhiy kayfiyati, his-tuyg‘ularini yanada yorqinroq, jarangdorroq ifodalab bergan.

Nihoyat, tasnifga ko‘ra, shoirning 53 ta g‘azalida 147 o‘rinda alliteratsiya hosil qilgan fonopoetik hodisalarni satrdagi o‘rniga nisbatan guruhlab, quyidagicha sxemalashtirdik:



Mumtoz asarlardagi qofiya fonopoetikaning muhim unsuri sanaladi. Hayratiyning 53 ta g‘azali va 14 ta muxammasining qofiyasi o‘rganilganda “or” bilan tugallangan qofiyali g‘azallar va muxammaslar 35 tani, *“on”* bilan tugagan qofiyalilari 20 tani tashkil etdi. Raqamlar ham *“o”* cho‘ziq unlisining ritmik joziba va imkoniyatlari keng ekanligi, shoir undan ohangdosh qofiya yaratishda mohirona

[21] Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎМЭ, 2002. – Б.30.
[22] Турсунова О. Ўзбек тили фонетик бирликларининг поэтик имкониятлари: Фил.фан.б-ча фалс.д-ри (PhD). ...дисс. автореф. – Фарғона, 2019. – Б.13.
[23] Муҳаббат васфи (альманах). – Наманган, 1993. – Б.9.

foydalanganini tasdiqlaydi. Hatto “Ketdi” g‘azalining qofiyasini matlasidan maqtasigacha to‘la *“or”* tovush birliklari bilan yaratgan:

Ketti to dilbar qilib sayri mozor,
Furqati hajrida bo‘ldim beqaror
(nizor, beixtiyor, or, shior, kanor, ro‘zg‘or, nahor, yor, gul’uzor, nigor, dilfigor, zor). (107-bet)

Dissertatsiyaning ikkinchi bob ikkinchi bo‘limida “Hayratiy she’riyatida qo‘llangan leksik birliklarning lingvopoetik xususiyatlari” haqida fikr yuritilgan. U o‘z asarlarida o‘zbek tili imkoniyatlaridan keng va samarali foydalangan. Shoir she’rlari lug‘at boyligining rang-barangligi esa bu borada bizga qulaylik va yengillik tug‘dirdi. Bobda shoir she’riyatidagi lug‘aviy birliklarning o‘zaro shakliy va ma’noviy munosabatlari ham tadqiq qilingan.

Tilimiz boyligi sanalgan lug‘aviy sinonimlar garchi bir umumiy ma’noni anglatsa-da, biroq ularning ma’no darajasi ham mavjud. Ijobiy yoki salbiy holatga xizmat qilishiga qarab, uslubga xoslik xususiyatiga ega. Hayratiy g‘azallari va qit’alarida shunday uslubona jihatlar bir talay. U sinonim so‘zlarni, avvalo, yonma-yon qo‘llash bilan maqsadiga monand ifodaga erishadi:

Qilurman ohu afg‘on nola birga. (16-bet)
Ayo koni zakou fahmu donish. (29-bet)

Sinonimlarni juftlab, qatorlashtirib qo‘llash aslida she’rning ohangdorligini ta’minlamasa ham, uning tilda jarang bermas, lekin *birla, ila, -u, -yu* kabi yordamchi so‘z, yuklama, qo‘shimchalar vositasida olg‘a surilayotgan fikrni teran va ta’sirchan qilib yuborishini Hayratiy yaxshi bilgan. Ularni faqat qatorlashtirib qo‘llash bilangina chegaralanib qolmagan, yana satrning boshida va so‘ngida ishlatgan yoki baytning birinchi va ikkinchi misrasiga yoyib mohirona jo qilib yuborgan:

G‘am o‘shadurkim, qachon dildorni ko‘rmas kishi,
Ayrilur jondan qachonkim, yordin bo‘lg‘ay judo. (23-bet)

Ushbu “judo” radifli g‘azalida *g‘am* so‘zi dominant bo‘lgan. Shoir o‘ziga xos sharh va ta’kid beryaptiki, haqiqiy g‘am qachonki yorning visolidan benasib qolishdir, ya’ni ayrilish so‘zisiz ayrilish holati tasvirlangan. Judolik holatiga emotsional va ekspressiv bo‘yoq berilgan. Uning g‘azal va muxammaslarida asosan leksik sathdagi ma’nodoshlikka ega so‘zlarning faol va unumli qo‘llanilgani, ma’nodoshlik ko‘proq, sifat, fe’l, ot va ravish so‘z turkumlariga xos ekanligi ko‘rinadi.

Hayratiy asarlari matnida zid ma’noli so‘zlarning qo‘llanilishi ham alohida leksik ustuvorlikni ta’minlagan. Antiteza vositasida fikr ta’sirchanligiga erishilgan:

Etib yakbora qahring bejinoyat,
Uzib mehring meni bekor etarsan. (15-bet)
Rahm qil minba’d, nuchun bag‘rim ezdi furqating,
Zohir etdim senga, bir sirri nihonim qolmadi. (45-bet)
Bu Hayrat doimo rashk o‘tida o‘rtanmayin netsun,
Qochib andin bo‘lursen yori ag‘yor aylanay sandin. (32-bet)

Misollardan ayonki, shoir g‘azal bitishda aruz vaznining talabiga ko‘ra, antonimlarning belgi, voqea-hodisalarni qarshilantirish va shu orqali kontrast

obrazlar yaratish xususiyatlaridan salmoqli foydalangan. She'rlariga o'zgacha ohangni, ma'no yorqinligini, fikr teranligini olib kirgan. Hatto zid ma'noli juft so'zlarning sinonimlarini saralab, eng maqbullarini qo'llaganini yuqoridagi ikki baytda ko'rib turibmiz. *Zohir-nihon (oshkor-yashirin); qahring-mehring; yor-ag'yor, do'st-dushman* so'zlari misra-yu baytlar mazmunini yanada mukammal qilgan.

Shoirning "Kerak" radifli g'azalining lingvopoetikasi juda puxta. Unda baytma-bayt: *Talx-shirin, do'stu-dushman, zohiru-botin, ro'zi-shab, yaxshi-yomon, sidqu muhabbat-kibru nifoq* singari zidlov xususiyatiga ega so'zlar, so'z birikmalari, badiiy matnning mazmuni va estetik qimmatini oshirib yuborgan.

Mumtoz adabiy asarlarda *qul* va *shoh* so'zlari – an'anaviy antonimlarni (ta'kid o'zimizniki) qo'llash urf edi. Biroq Hayratiy she'rlarida ko'proq *devona* va *xon* tarzida uchraydi. *Podsho* so'zi ham qo'llansa-da, *qul* so'zi shoir yashayotgan zamonda eskirgandi. U xonlik zamonida *xon* so'zini faollashtirgan va unga *devona* so'zini zidlashni afzal bilgan.

Nomalar yozdim necha so'zi dilimni sharh etib,
Hayrati devona o'ldim, debki xonim sog'inib. (45-bet)

B.To'xliyev aytganiday: "O'rni bilan takrorlangan so'zlar ko'pincha badiiy ta'sirchanlikning, g'oyaviy baquvvatlikning ham muhim sharti bo'la oladi"[24].

O'zingni saqlag'il behuda ishlardin nihoyatda,
O'zingdin o'zga yo'q hargiz o'ziga xayrixoh banda[25].

Hayratiyning bu baytidagi o'z o'zagidan yasalib, egalik va kelishik qo'shimchalari bilan ma'no ko'rsatkichlari ko'paytirilgan holatdagi bir so'zning to'rt marta takrorlanishi maqsadga muvofiq tushgan. So'zlar munosib o'rinlarda qaytalanib, grammatik bog'lanishning mukammalligini ta'minlagan.

Tilshunos R.Qo'ng'urovning "Shoir va yozuvchilar tasvirlayotgan voqea-hodisaning nazarda tutilgan tomoniga o'quvchining diqqatini tortish, uni bo'rttiribroq ko'rsatish uchun yoki ma'lum narsalarni sanab ko'rsatish niyatida ko'proq she'riy asarlarda... ayrim tovush yoki tovushlar birikmasiga, gaplarga ataylab alohida urg'u beradi, takrorlaydi"[26] degan ta'kidini tasdiqlovchi misollar Umrzoq Hayratiy adabiy merosida keragicha uchraydi. Uning "Ey pari rux" g'azalida *xush* so'zi bir baytda besh bor qayta qo'llangan. Tobora ma'noga ma'no qo'shilib, ma'nodan ma'no yangilanib, o'ynoqi ohang balandlagani sari ta'sirchan tusga kiradi:

Xushdur jahonda xushlig' husni hamida birla,
Xushro'g'a xush tabiat xushtor, ey pari rux. (30-bet)

Alisher Navoiyning "Mukarrar lafz" atamasi bo'lib, uning lisoniy ma'nosi ham takror so'zdir. Xuddi lahza-lahza singari juft so'zlar orasiga chiziqcha qo'yib yoziladi. Lekin juft so'zlar bir nafasda qo'shib o'qilsa, "mukarrar lafz"ga taalluqli so'z ketma-ket qisqa sukut bilan, yana ikkinchisi balandroq ohangda talaffuz qilinadi. Natijada aytiladigan fikrni kuchaytiradi. Umrzoq Hayratiy buni yaxshi anglab yetgani uchun satrlariga *egizlangan* (ta'kid bizniki) so'zlarni kerakli o'ringa

[24] To'xliyev B. O'zbek adabiyoti. – Toshkent: O'qituvchi, 2000. –B.268.
[25] Ҳайратий шеърияти // "Меҳнат ва турмуш" журнали, "Mehnat va turmush" jurnali, 1975, №3 – B.30.
[26] Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 217.

qo‘yishning ham hadisini olgan.”Kelur”, “Ko‘zlaring”, “Qo‘zg‘olmasun”, “Sog‘inib”, “Aylamas” kabi ko‘plab g‘azallarida takror so‘zlar matnda ana shunday ta’sirchan jarang bergan.

Hayratiy g‘azal va muxammaslaridagi radif so‘zlar ham hamisha aniq maqsad bilan qo‘llangan. Chunki “Radif she’rdagi asosiy fikr ko‘rsatkichi bo‘lib, xushohanglik, xushjaranglik yaratuvchi she’r unsuridir”[27]. Shoirning radiflangan takrorlari ko‘proq fe’l, ravish, ot, olmosh va sifat so‘z turkumlari shakllariga mansubdir. Ayniqsa, “kel” o‘zagi bilan yasalgan fe’llardan salmoqli foydalangan. “Kelmasmu?”, “Bir kelsun”, “Kel”, “Keling”, “Kelguncha”, “Kel ertaroq”, “Kelur” radifli g‘azallari ana shular jumlasidandir. Bu holat ham ijodkorning so‘z qo‘llashdagi badiiy mahorati mezonini belgilovchi yana bir omil, desak yanglishmasak kerak.

Ayon haqiqatki, har bir insonning dunyoni bilish jarayonida o‘xshatish, ya’ni qiyoslash, taqqoslash, nisbiylashning ishtiroki juda faol. Tez-tez murojaat etishiga ehtiyoji baland. Bu behad muhim mantiqiy kategoriya, tabiiyki, tilda o‘z aksini topadi[28].

Tadqiq jarayonida shoir she’rlari tilidagi o‘xshatishlarni kelib chiqishi jihatiga ko‘ra, ikki turkumga mansubligi aniqlandi:

1) mumtoz adabiyotdagi boshqa asarlarda qo‘llanilgani kabi an’anaviy-o‘xshatishlar.

2) ijodkorning o‘ziga xos, yangi, ohorli o‘xshatishlari.

An’anaviy o‘xshatishlariga qaraganda ham noan’anaviysi muhimligini hisobga olib, ayniqsa, o‘ziga xosligiga alohida e’tibor qaratdik. Bu borada Hayratiyning o‘xshatish san’atidan foydalanishdagi individuallik mahorati qay darajada ekanini ko‘rsatib o‘tdik.

An’anaviy o‘xshatishlar negizida milliylik, keng ma’noda sharqonalik barq urib turadi. Lingvopoetika masalalari bilan jiddiy shug‘ullanib kelayotgan ustoz tilshunosimiz Nizomiddin Mahmudov bu yo‘nalishga quyidagicha sharh bergan: “O‘zbek tilida oyday o‘xshatish etaloni juda keng qo‘llanadi.

...1. Chiroyli, go‘zal. Asosan ayollar haqida. 2. Porlamoq, balqmoq, ajralib turmoq, kuchaymoq. 3. To‘lmoq, yanada go‘zallashmoq. 4.Ravshan, ayon, ma’lum, shubhaga o‘rin qoldirmaydigan darajada aniq bilingan... Bundan tashqari, ayolning go‘zalligini ta’kidlaydigan o‘n to‘rt kunlik oyday turg‘un o‘xshatish varianti ham bor”[29]. Bu fikrlarni Hayratiy baytlaridagi oyga daxldor so‘zlar yaqqol tasdiqlaydi:

To‘lin oydek yuzi rashki, mahe mahtob bir kelsun. (51-bet)

Oy yuzing ko‘zdin nihon etding netay. (80-bet)

Shoir oydan ko‘ra ham uning ma’nodoshi moh va mah variantini ko‘proq ma’qul bilgan: *mohtob, mahvash, mohsiymo* deya yorni sifatlaydi:

Mahvasho, jamolingni mehrini duraxshon qil,

[27] Assallayev A., Rahmonov V., Musulmonqulov F. Badiiy san’at jozibasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005. –B.15.

[28] Маҳмудов Н. Семантико синтаксическая ассимметрия в простом предложении. Узбекского языка. Д.Д. – Ташкент, 1984. – С.259.

[29] Mahmudov A. O‘xshatishlar va milliy obraz. // O‘zbek tili va adabiyoti. – 2013, №1. – B.7-8.

Orazing shuoidin kulbami charog‘on qil. (137-bet)

